

Globallashuv jarayonida yoshlardan mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

## **BUGUNGI KUNDA YOSHLARDA MUSTAQIL DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA JADID MA'RIFATPARVARLARI MA'NAVIY MEROSINING O'RNI**

*Qo'qon davlat pedagogika instituti  
katta o'qituvchisi Sharipova O.A.*

### **Annatatsiya**

Maqlolada globallashuv jarayoni va xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Ma'naviy tarbiyaning mazmuni, yoshlarning mustaqil dunyoqarashini shakllantirish, ma'rifatparvarlarning qarashlari, ularning ahamiyati va yoshlarga ta'siri haqida yetarlicha yoritilgan.

### **Kalit so'zlar**

Globallashuv, dunyoqarash, yoshlar, ma'naviyat, ma'rifat, ma'naviy tarbiya, jamiyat, ijtimoiy-siyosiy hayot, milliy tiklanish, milliy uyg'onish.

Hozirda bizni qurshab turgan dunyo juda tez o'zgarib bormoqda. Yaqin va uzoq hududlarda turli xil mojarolar va qon to'kishlar davom etayotgani, terrorizm, ekstremizm va narkotrafik xavfi ortib borayotgan bir davrda yoshlарimiz mustaqil sog'lom dunyoqarashini shakllantirib borish bizningg oldimizda turgan eng dolzarb vazifa hisoblanadi. Yoshlar mustaqil dunyoqarashining shakllanib borishi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda milliy o'zlikni anglash jarayoni bugungi kun uchun turmushning barcha qatlamlarini qamrab olishi va unda muammoli vaziyatlarni bartaraf etuvchi asosiy kuchga aylanishi muhim ahamiyatga kasb etadi.

Yoshlарimizda sog'lom dunqarashni shakllantirish uchun ularda avvalo bilimga intilish, o'qish-o'rganishga, izlanishga xavasni uyg'otishga harakat qilmog'imiz lozim. Globalizm sharoitida farzandlarimizni yo'ldan urib, xorijiy davlatlarga olib chiqib ketish uchun harakatlar bo'lishi tabiiy holatdir. Ularning turli xil aldovlar, yolg'on va'dalar bilan chalg'itadigan kuchlarga qarshi kurashishimiz bizning oldimizda turgan asosiy vazifamiz ekanligini anglab etishimiz darkor. Buning uchun avvalombor yoshlарimizning ma'naviyatini yanada yuksaltirishimiz, bugungi axborot asrida turli xil axborot hurujlaridan himoya qilishimiz, ularning mafkuraviy immunitetga to'liq ega bo'lishlariga o'z hissalarimizni qo'shishimiz kerak bo'ladi. Biz bolalarimizni g'arazli niyatlardan saqlashimiz va ularni turli xil aldovlar yordamida chalg'itishlarga hech qachon yo'l qo'ymasligimiz lozim.

Bu borada Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday fikrlarni bildirganlar: "Bu dunyoda har bir ota-onasi, avvalombor, bolalarini o'stirish, voyaga etkazish, uyli-joyli qilishdek ezgu niyatlar bilan yashaydi. Ayniqsa, o'zbek xalqining bolajonligi, o'z bolasini

## Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda

### ta’lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

jonidan ham yaxshi ko‘rishi, bu boradagi fidoiyligi har qanday tafsinga sazovordir. Bugun barchamiz chuqur anglab oldikki, faqatgina zamonaviy asosda ta’lim-tarbiya olgan, jahoning manaman degan mamlakatlaridagi tengdoshlari bilan bellasha oladigan, jismoniy va ma’naviy jihatdan barkamol yoshlar biz boshlagan ishlarni munosib davom ettirish va yangi bosqichga ko‘tarishga qodir bbo‘ladi.”[1].

Darhaqiqat, yoshlarimiz ilm-fan sirlarini o‘rganishmi, zamonaviy bilim va kasb-hunar egallahsmi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internetdan foydalanishmi barcha-barcha sohalarda yutuqlarga erisha oladilar. Bu sohada bizning oldimizdag‘i asosiy vazifa internetdan foydalanishda ham yoshlarimizda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishimiz lozim. Buning uchun bizning oldimizda ulkan vazifa, ya’ni farzandlarimizga har tomonlama sog‘lom tarbiya va to‘g‘ri bilim berib borish vazifasi turibdi. Ushbu vazifani sidqidildan, ma’suliyat bilan ado etishda biz o‘tmishimizga, tariximizga, buyuk allomalarimizning yuksak ma’naviy meroslariga murojaat qilishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu bilan birga internetdan foydalanishda ham yoshlarimizda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishimiz lozim. Bunda o‘z hayoti, o‘z taqdirini ona Vatan taqdiri bilan chambarchas bog‘laydigan yoshlarni tarbiyalash kerak. Buyuk allomalarimiz, Abu Nasr Farobi, Abu Rayxon Beruniy, Ibn sinolar ma’naviy merosidan foydalanib, sog‘lom fikrlaydigan, mustaqil dunyoqarashga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash mumkin. Ulardan so‘ng “Miliy uyg‘onish” davri (XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida) o‘ziga xos davr bo‘ldi.

Vatanimiz mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar davomida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, beba ho ma’naviy, madaniy merosni to‘la tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan muhim vazifa sifatida talqin etilmoqda. Darhaqiqat sho‘ro tuzumi yillarda ma’lum sabablarga ko‘ra o‘zbek ma’rifatparvarlarining asarlari faqat bir tomonlama talqin qilib kelingan. Mumtoz adiblarimiz ijodi endilikda umuminsoniy nuqtai nazardan qayta talqin qilib kelinmoqda. Shu jumladan o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning adabiy-badiiy merosi ham bundan mustasno emas.

Mustaqillik tufayli Furqat shaxsiga, uning ijodiga yangicha munosabat paydo bo‘ldi. Shoir faoliyatiga bo‘lgan ilmiy qarashlarniyangicha tahlil qilish boshlandi. Uning she’rlaridagi milliy ruh endi haqiqiy o‘z ifodasini topdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Furqat ijodini o‘rganish XX asrning 30-yillaridan boshlab kuchayganini ko‘rish mumkin. Furqat ijodiy faoliyati ko‘lami juda keng, serqirra adiblar jumlasiga kiradi. Shoirning ma’rifatparvarlik va ma’naviyatni ko‘tarishga qaratilgan asarlari e’tiborga loyiq.bugungi kunning eng dolzarb masalasi yosh avlodni bilimli, ma’naviyatli va ma’rifatli bo‘lishiga erishishdir. Shoir ham yosh avlodni bilimli bo‘lishini istaydi va ilm o‘rganishni har narsadan ustun qo‘yadi.

Furqat yurish-turishi, xushmuomilaligi, xatto kiyinish jihatidan ham tevarak-atrofdagilarga namuna bo‘lgan. “Furqatni ba’zan kishilar “Qo‘g‘irchoq afandim” deb

## Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda

### ta’lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

ataganlar bunga sabab: Furqat doimo ozoda va toza kiyinár ekan. Oq sariq yuzli, ulug‘roq gavdasiga ozoda va toza kiyinishi yarashib turar ekan.”[2].

O‘zbek ma’rifatparvarlaridan bobomiz Abdulla Avloniyning ijodida ham ma’naviy merosimizga munosabat masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa uning ona tilimiz haqidagi fikrlari fikrimiz isbotidir. Abdulla Avloniy so‘zi bilan aytganda “Har millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qatmakdur”[3].

Bu fikrlarni Mahmudxo‘ja Behbudiy ham qo‘llab-quvvatlaydi. Behbudiy qaramlikdan qutilish millatni halokatdan saqlab qolishning, ona tilimizni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri Turkiston xalqini g‘aflat uyqusidang uyg‘otishdadir, deb tushunadi. “Olimi zamonaviy bo‘lmoq uchun, - deydi Behbudiy, - bolalarning, avvalo muslimmoniy xat va savodini chiqarub, ...o‘z millatimiz tilini bilaturg‘ondan so‘ngra hukumatimizning nizomli maktablariga berioq kerakdur”[4].

Muxtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ham o‘zbek ma’rifatparvarlarining fikrlariga alohida e’tibor qaratadilar. “Ulug‘ alloma, XX asr boshida olti tilli – o‘zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida lug‘at tuzgan Is’hoqxon Ibratning mana bu hikmatli so‘zlarini eslatmoqchiman: “Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir”.

O‘laymanki, bu so‘zlarga ortiqcha izohning hojati yo‘q”.[5].

Bugungi kunda yoshlarimizning ma’naviy jihatdan dunyoqarashini boyitishda ma’rifatparvarlarning ijtimoiy siyosiy sohadagi qarashlari ham alohida ahamiyatga molikdir. Ma’rifatparvarlik ijtimoiy fikr rivojlanishida muhim, salmoqli bosqichlardan birini tashkil etib kelgan. Yoshlarimiz ma’naviy-ma’rifiy jihatdan bilimga ega bo‘lishlari uchun o‘zbek ma’rifatparvarlarining ijtimoiy-sisiy sohadagi qarashlarining mohiyati bilan ham tanish bo‘lishlari va global muammolarni o‘zlarining sog‘lom mustaqil fikrlari bilan xal etishga qodir bo‘lishlari kerak.

Ma’rifatparvar ziyyolilar alohida guruhi ancha jips uyushgan, doimo bir-biri bilan shaxsiy aloqada bo‘lgan, o‘zaro yozishmalar qilib turishgan. Yoshlarni mustaqil dunyoqarashlarini to‘g‘ri shakllantirish uchun ma’rifatchilarining merosini yangi maqsadlarga moslashtirib o‘zlashtirish va bunda, dastavval, xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi “erksevarlik, xalqning tengsiz zako va qudratiga cheksiz ishonch, ilm-hunarning inson kamolotidagi katta ahamiyatini yaqqol his etish ruhi” juda muhim hisoblangan. Yoshlar dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirishda ma’rifatparvarlarning islom dini bilan ham bog‘liq bo‘lgan qarashlari ham alohida ahamiyatga molikdir. XIX asrning ikkinchi yarmidan Turkiston uyg‘onish vakillari o‘lkada amalda bo‘lgan islom dini doirasida ham o‘rta asrlardan boshlab tarqalgan hurfikrlilikni yoqlaganlar. Aql ham ma’rifatparvarlar uchun din zaminida ilohiy tushuntiriladigan hodisadir. Abdulla Avloniy shunday yozgan edi: “Janobi haq tomonidan insonga berilmish aql va idroki

## Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

soyasida o‘ziga keladurg‘on zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilub, bo‘ynidan boylab, iplarning uchini qo‘llariga bergen insonlarning aqlidur”.[6].

Avloniyni davom ettirganday, Abdurauf Fitrat ham yozadi: “Olloh bergen ne’matlarning eng buyugi aqldir, shu aql odamlarni mahluqlar orasida muqarrar va musharraf qilganlar”.[7].

Shunday qilib, yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda o‘zbek ma’rifatparvarlarininig ma’naviy merosining tutgan o‘rni beqiyos ekanligini ko‘rishimiz va bunga to‘la amin bo‘lishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. I.A.Karimov. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish-eng oliv saodatdir-T.: O‘zbekiston 2015.- B.253-254.
2. A.Abdug‘ofurov. Zokirjon Furqat.-T.: Fan 1977.-B.101.
- 3.A.Abdug‘ofurov. Zokirjon Furqat.-T.: Fan 1977.-B.131.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoki axloq.-T.: O‘qituvchi, 1967-B39.
5. Sh.M.Mirziyoev. Milliy tiklanishdan-miliy yuksalish sari.(4-tom) - T.: O‘zbekiston. 2020.-B.171.
6. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild. T., “Ma’naviyat” 1998.-B.41.
7. Fitrat. Najot yo‘li. T., “Sharq” 2001.-B.15.